

**Xosiyat
BOBOMURODOVA,
O‘zbekistonda
xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi.**

Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llangan Murojaatnoma yurtdoshlarimizni yangi marralar, ulug' maqsadlar sari ruhlantirgani shubhasiz. Negaki mamlakatimiz taraqqiyotini va uning yorqin istiqbolini belgilab beruvchi bu muhim dasturilamal hujjatda davlat boshqaruvini isloh qilish, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish hamda islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha muhim vazifalar yaqqol aks etdi. Bu haqda yurtdoshlarimiz o'z fikrlarini bildirmoqda, murojaatnoma asosida kelgusi besh yilga rejalar tuzmoqda.



Akbar AXTAMOV,
"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi raisi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati:

– Murojaatnomada ilgari surilgan davlat kafolati ostida jalb etiladigan tashqi mablag'larni parlament tasdig'idan o'tkazish tashabbusi haqida xisqacha fikr bildiradigan bo'lsak, bu amaliyot davlat qarzi va budget intizomi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi, qarorlarni tegishli mezonlar asosida qabul qilish imkonini beradi.

Davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida xarid qilish holatlarini faqat qonun bilan belgilash korruptsiya xavflarini kamaytirishga qaratilgan prinsipial yondashuv bo'lib, parlamentning qoidalarni belgilash va ijrosini nazorat qilish vakolatlarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, deputat so'rovlarini ta'sirchan huquqiy vositaga aylantirish bo'yicha yo'lga qo'yiladigan yangi tartib, ya'ni deputat so'rovlari ijrosini har chorakda tahlil qilish va sustkashlik holatlari bo'yicha prokuratura organlariga taqdimnoma kiritish amaliyoti ijro intizomini yanada kuchaytirib, "deputat -xalq ovozi" tamoyilini amalga ta'minlaydi.

Hokim va Kengash raisi vakolatlarini tuman va shahar darajasigacha ajratish mahalliy Kengashlarning mustaqilligi va ta'sirchanligini oshiradi, hududiy budget hamda ijtimoiy dasturlar ustidan prinsipial deputatlik nazoratini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Siyosiy partiyalar va deputatlik guruhlariga oldiga ham Murojaatnomada aniq vazifalar qo'yildi. Raqobatni tanqid bilan cheklamasdan, amaliy taklif berish, muqobil yechim tayyorlash va qarorlar ijrosini doimiy nazorat qilish orqali jamiyatda "hisobdor davlat" tamoyilini mustahkamlash zarurligi alohida ta'kidlandi.



Xo'jaqul MUHAMMADIYEV,
O'zbekiston Ekologik partiyasi viloyat kengashi raisi:

– Mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish, iqtisodiyotni texnik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish, ichki bozorda talabni rag'batlantirish, kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish, zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlar kabi dolzarb masalalar qatorida yana bir ustuvor yo'nalish - ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish alohida ta'kidlandi.

Prezidentimiz bu boradagi muammolarni hal etish uchun yirik korxonalar-ga filtr, tozlash inshooti va havoga chiqariladigan zararli moddalar tashlanmalarini monitoring qilish stansiyasi o'rnatish uchun 100 million dollarlik kredit liniyasi ochilishini e'lon kildi.

Murojaatnomada partiyamiz saylovoldi dasturiga hamohang bir qancha muammolar o'rta qatagatlashib, ular yechimi bo'yicha aniq rejalar qayd qilindi. Jumladan, shaharlardagi tirbandliklar nafaqat odamlar hayotini qiyinlashtirmoqda, balki ekologiyaga ham jiddiy zarar yetkazayotgani qayd etildi. Shu bois dunyo tajribasidan kelib chiqib, avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalar darajasiga qarab ekologik stikerlar berish tizimi joriy qilindi. Katta miqdorda zararli moddalar chiqaradigan avtomashinalarning poytaxt va viloyat markazlari hamda shaharlarga kirishi cheklanadi.



Ilhom BOTIROV,
O'zLiDeP viloyat kengashi raisi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati:

– Murojaatnomada jamiyat hayotida mahallaning o'rni va nufuzini yanada oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, aholi farovonligini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni innovatsion asosda rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish hamda inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida belgilab berildi.

Yana bir muhim jihati, qonun chiqaruvchi hokimiyat va mahalliy Kengash deputatlarining jamiyat hayotidagi o'rni va mas'uliyatini yanada oshirish masalasiga ham alohida urg'u berildi. Davlat rahbari deputatlar faoliyati xalq bilan yaqin muloqotga, joylardagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularga yechim topishga qaratilgan ko'lishi zarurligini ta'kidlandi. Bu esa deputatlarning faqat qonun ijodkorligi bilan cheklanib qolmasdan, aholi manfaatlarining haqiqiy himoyachisi sifatida faol ish olib borishini taqozo etadi.

Xususan, 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi deputatlar zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklamog'ga. Chunki mahallada amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy dasturlar va davlat loyihalari-nings samaradorligi ko'p jihatdan mahalliy Kengash deputatlarining tashshabbuskorligi, nazorati va faol pozitsiyasiga bog'liq.

Murojaatnomada ilgari surilgan tarixiy tashabbus — Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor kosmik sohada sun'iy yo'ldoshni uchirish rejasining e'lon qilinishi mamlakatimiz ilm-fani va texnologiyalari yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi. Bu kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishda ham parlament va deputatlik korpusining qonunchilik asoslarini mustahkamlash borasidagi roli beqiyosdir.



Himmat OQBO'TAYEV,
"Adolat" SDP viloyat kengashi raisi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati:

– Murojaatnomada Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi izchil islohotlar, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadriini yuksaltirish hamda mahallalarni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar aniq va tizimli tarzda belgilab berildi.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish, korruptsiyaga qarshi murosasiz kurash, tadbirkorlik va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgani Murojaatnomaning dolzarbligini yanada oshirdi.

Shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan, raqamli texnologiyalar, ekologiya va xavfsizlik sohalarida belgilangan aniq vazifalar mamlakatimizning uzoq muddatli strategik rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi.

Mazkur Murojaatnoma davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda butun jamiyat oldiga katta mas'uliyat yuklaydi. Unda belgilangan vazifalar va ustuvor yo'nalishlarni to'liq va sifatli amalga oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi va davlatimiz qudratini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



Badriddin NASRIYEV,
XDP viloyat kengashi raisi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati:

– Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, so'nggi to'qqiz yilda el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdik. Iqtisodiyotimiz yangidan shaklland, bozor munosabatlari, ijtimoiy himoya kengaydi, qonun ustuvorligi mustahkamlandi. Eng muhimi, islohotlar samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qildi.

Davlatimiz rahbari millati, tili va dinidan qat'i nazar, 38 millionli el-yurtimizni birlashtiradigan ulug' bir g'oya borligi, u ham bo'lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaati ekanligini alohida ta'kidlandi.

Yangi yil dasturida ham yur-timizdagi 9 mingdan ziyod mahallani, avvalo, mehr-oqibat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish kabi dolzarb masalalar o'z ifodasini topadi.

Endi barcha davlat idoralari-ning 1 mingdan ziyod davlat xizmatlari, 5 mingdan ortiq funksiya va vazifalari, 240 ta ma'lumot bazasi va axborot tizimi, 100 mingdan ziyod davlat xizmatchisining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari Yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi.

Davlatimiz rahbari islohotlar samaradorligini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining roli muhim ekanini ta'kidlandi. Shu bois ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosat kelgusida ham izchil davom ettiriladi. Xususan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha besh yillik strategiya ishlab chiqiladi.

Davlatimiz rahbarining yuksak marralarga eltuvchi ezgu g'oyalari, uzoqqa mo'ljallangan, samarali, strategik islohotlari partiyamiz o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga hamohangligi bizni yanada quvontirmoqda.



Akmal SHUKUROV,
viloyat hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi nazorati inspeksiyasi rahbari:

– Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasi aholi farovonligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Murojaatnomada bu yo'nalishga alohida to'xtalib, hududlarda bunyodkorlik ishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, qurilishda qonun ustuvorligini ta'minlash, xavfsizlik va sifat talablarini keskin kuchaytirish zarurligini qat'iylar ta'kidlandi. Bu esa biz, hududiy nazorat inspeksiyalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Belgilangan eng muhim vazifalardan yana biri qurilish sohasida tartib-intizomni mustahkamlash, noqonuniy qurilishlarning oldini olish va barcha obyektlar belgilangan me'voriy hujjatlar asosida barpo etilishini ta'minlashdir. Endilikda inspeksiya faoliyati nafaqat tekshiruvlar o'tkazish, balki qurilish jarayonlarida ochiqlik, shaffoflik va mas'uliyatni oshirishga qaratiladi.

Prezidentimiz qurilish sohasida raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalasiga ham to'xtaldilar. Bu yo'nalishda inspeksiya tomonidan qurilish jarayonlarini elektron monitoring qilish, ruxsatnomalar va hujjatlarni raqamli platformalar orqali yuritish bo'yicha ishlar boshlab yuborilgan. Bu o'z navbatida, korruptsiya holatlarning oldini olishga, inson omilini kamaytirishga va nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Sherzod MAMATOV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktorining maslahatchisi:

– Murojaatnomada ma'naviyat, tarbiya va ijtimoiy birdamlik masalalariga keng o'rin berilgani alohida e'tiborga loyiq. Chunki iqtisodiyot qanchalik rivojlanmasin, jamiyatda o'zaro hurmat, adolat va ma'naviy ustunlik bo'lmasa, barqaror taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Shu ma'noda, diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan ishlar, sog'lom e'tiqod va ilimga asoslangan yondashuvlar jamiyat barqarorligining muhim kafolati sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bu o'rinda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi oldida turgan vazifalar ham yanada oydinlashadi.

Davlatimiz rahbari Murojaatnomada mahalla, jamiyat va inson qadri masalalariga alohida e'tibor qaratgani bejiz emas. Chunki xalqimiz tajribasida tinchlik va barqarorlik avvalo, yaxshi qo'shnilik, o'zaro hurmat va ma'naviy birdamlikdan boshlanadi. Islomiy ta'limotda ham insonning jamiyatga manfaat keltirishi eng oliy fazilatlar qatorida ulug'lanadi. Bu g'oyalari bugungi islohotlarning ma'naviy ildizini tashkil etadi.

Murojaatnoma bizga yana bir muhim haqiqatni eslatdi: davlat islohotlari yuqoridan tushiriladigan shiorlar emas, balki xalq bilan birga bosib o'tiladigan yo'l. Shu bois ushbu hujjat nafaqat parlament yoki mutaxassislar uchun, balki har bir fuqaro uchun daxldor dastur sifatida qabul qilinmoqda.

O'tayotgan yil viloyat hayotida faqat raqamlar va hisobotlar bilan emas, balki amaliy ishlar, ochiq muloqot va javobgarlik bilan yodda qolmoqda. Bu jarayonlarda xalq deputatlari viloyat Kengashi faol ishtirok etib, joylardagi muammolarni ko'tarish, ularga yechim topish va qabul qilingan qarorlar ijrosini nazorat qilishni o'z faoliyatining asosiy maqsadiga aylantirdi.

HISOBOTNING O'ZI YETARLI EMAS ...

2025-yil o'n bir oyi davomida xalq deputatlari viloyat Kengashining 16 ta sessiyasi o'tkazildi va ushbu sessiyalarda 170 ta masala ko'rildi. Shundan, hisobotlarni eshitish to'g'risida 23 ta, axborotlarni eshitish to'g'risida 5 ta, vakolat doirasidagi qarorlarni tasdiqlash to'g'risida 18 ta, hokim qarorlarini tasdiqlash to'g'risida 23 ta hamda 101 ta boshqa masalalar to'g'risida qarorlar qabul qilingan.

Qayd etish lozim, bu yil Kengash sessiyalari "oddiy hisobot eshitish maydoni"dan ko'ra, haqiqiy muhokama minbariga aylandi. Maktablardagi sharoit, poliklinikalardagi navbat, qishloq yo'llarining ahvoli — bular deputatlar tomonidan ochiq ko'tarildi. Mas'ul rahbarlardan esa umumiy gaplar emas, aniq muddat va natija talab qilindi.

Qabul qilingan qarorlarda sohadagi kamchiliklar inobatga olinib, vazifalar belgilab berildi. Bu yondashuv vakillik or-

Qarordan natijaga:

Viloyat Kengashi uchun yil qanday o'tdi?

gani faoliyatini kuchaytirish, ijro organlari mas'uliyatini oshirishga xizmat qilyapti.

ODAM TAQDIRI — ENG MUHIM MASALA

2025-yilda Kengash e'tibori avvalo, odamlar kundalik hayoti bilan bog'liq sohalarga qaratildi. Ta'lim muassasalarini ta'mirlash, maktab va bog'chalarni jihozlash, qishloq joylarda tibbiy xizmat sifatini oshirish masalalari sessiyadan sessiyaga ko'tarib borildi.

Ayniqsa, sog'liqni saqlash sohasidagi muammolar muhokamasi qizg'in kechdi. Deputatlar "hisobot uchun emas, bemor uchun ishlash kerak" degan tamoyilni ilgari surib, joylarda aniq o'zgarishlar ko'lishini talab qildi.

Aholi bandligi 2025-yilda Kengash muhokamalarida eng ko'p tilga olingan masalalardan biri bo'ldi. Yangi ish o'rinlari yaratish, yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng yo'l ochish masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Deputatlar investitsiya loyihalarini faqat qog'ozda emas, amalda ishlashi, odamlarga daromad va barqaror ish joyi berishi lozimligini qat'iylar ta'kidlandi.

2025-yilda mahalliy budget masalasi ham Kengashda jiddiy tahlil qilindi. Qaysi mablag' qaerga sarflanyapti, uning natijasi bormi, aholi bu o'zgarishni his qilyaptimi — ana shu savollar deputatlarni befarq qoldirdi.

Ayrim kamchiliklar ochiq aytiladi, mas'ullarga topshiriqlar berildi. Budget sarfida shaffoflik va javobgarlik tamoyili ustuvor qilib belgilandi.

SAYLOVCHI BILAN YUZMA-YUZ

Deputat uchun eng katta bahoni saylovchi beradi. 2025-yilda Kengash a'zolari mahallalarga chiqib, odamlar bilan yuzma-yuz uchrashdi, murojaatlarni joyida o'rgandi. Yo'l, suv, elektr, yer masalalari bo'yicha ko'tarilgan muammolar tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda yechim topa boshladi.

Bu muloqotlar odamlarda "biz eshitilyapmiz", degan ishonchni mustahkamladi.

Viloyat Kengashi deputatlari tomonidan yilning o'n bir oyi davomida saylovchilar uchun 93 marta sayyor qabul o'tkazildi. Shuningdek, qabul qilingan qaror va qonunlar yuzasidan yuzdan ortiq targ'ibot tadbiri tashkil etildi. Ushbu uchrashuvlarda saylovchilar tomonidan hudud infratuzilmasini, ichimlik va oqova suv tizimini,



gaz va elektr energiyasi muammolarini hal etish yuzasidan 100 dan ko'proq taklif-muammolar kelib tushgan va ushbu muammolar bo'yicha tegishli tashkilotlarga 345 ta deputatlik so'rovi chiqarildi.

Darvoqe, obod ko'cha, toza muhit — farovon hayot belgisi. 2025-yilda yashil hududlarni ko'paytirish, chiqindilarni tizimli olib chiqish, ichimlik suvi ta'minoti yaxshilash masalalari Kengash diqqat markazida bo'ldi. Qabul qilingan qarorlar ijrosi deputatlik nazoratiga olindi.

YANGI YILDA YANGILIKLAR KO'P BO'LADI

2025-yil xalq deputatlari viloyat Kengashi uchun so'zdan ishga o'tish yili bo'ldi. Muammoni ochiq aytish, mas'uldan talab qilish va natijaga erishish yil davomidagi faoliyatning bosh mezoniga aylandi. Eng muhimi, bu ishlar odamlar hayotida sezilarli o'zgarishlarga xizmat qilmoqda.

Kelgusi yilda xalq noiblarining faoliyati bundanda samarali bo'lishi, jamiyat hayotida o'rni va roli oshishi kutilmoqda. Negaki, Senatning o'n ikkinchi yalpi majlisida "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun muhokama qilindi.

O'zgartirish va qo'shimchalarda mahalliy Kengash raisi va hokimlar lavozimlari bir-biridan ajratilganligi sababli 9 ta ko-deks va 69 ta qonun qayta ko'rib chiqilib, mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuklatilgan vakolatlarini mahalliy vakillik va ijro organlari o'rtasida ixtisoslashtirish nazarda tutilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari "Kuchli kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyili asosida vakillik va ijro organlari o'rtasida aniq taqsimlandi, mahalliy Kengash va hokimliklarning faoliyatiga xos bo'lmagan va respublika ijro etuvchi organlari vakolatlariga oid takrorlanuvchi 8 ta vazifa bekor qilindi.

Saidahmat USMONOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati mudiri.



Yangicha

dehqonchilik yordamida daromadimiz

3 milliarddan oshdi

Ko'p yil dehqonchilik qildim va shu tajribalarim asosida, 2006-yilda fermer xo'jaligi tashkil etdim. Hozir 15 nafar doimiy va 50 nafar mavsumiy ishchi bilan tasarrufimizdagi 90 gektar maydonning 45 gektarida g'alla, 40 gektarida paxta, qolgan yerlarda meva-sabzavot yetishtiramiz. Fermer xo'jalik tashkil etganimizda 3 gektar an'anaviy bog' bor edi. 2020-yilda shu eski bog' o'rnida intensiv bog' tashkil etdik. Hozir bog'dagi nok va shaftoli hosilidan yiliga 300-400 million so'mgacha daromad olyapmiz. 2019-yilda xo'jalik mablag'lari hisobidan 50 tonnali muzlatkichli omborxona qurdik.

Dehqonchilikda odatiy ekish usullari o'rni-ga ilmiy yondashuv asosida yerga mos urug' tanlash, sug'orish, ishlov berishda innovatsion ishlanmalarni joriy qildik. Natijada g'alladan o'rtacha hosildorlik gektariga 70-80 sentnerni, paxtadan 65 sentnerni tashkil etdi.

Paxtachilikda joriy yilda birinchi marta 20 gektar maydonda "Shinjon" texnologiyasi asosida 76 santimetrlilik qo'shqator usulida plyonka ostiga urug' qadadik, tomchilatib sug'orishni yo'lga qo'ydik. Buning natijasida saratongacha yerda namlik saqlandi. Hosil erta pishdi, suv

sarfi 50 foizga tejalandi. O'tgan yili shu maydonlarga paxta ekib, gektaridan 40-41 sentnerdan hosil olgandik, bu yil tanlovimiz to'g'ri bo'lgan ekan hosildorlik 65 sentnerdan oshdi.

Avvallari tukli chigitdan gektariga 60-80 kilogrammdan ekkan bo'lsak, qo'shqator seyalka-da gektariga 25 kilogrammdan chigit qadadik. Yana bir yaxshi tomoni bu usulda qo'l mehnati

yo'q, yagana, chopiq qilinmaydi, kultivatsiya kirmaydi, suv tejalandi. Yoz davomida qator orasini yumshatish va jo'yak olish uchun dalada 13-14 marotaba texnika ishlardi. Bu

xarajatlarni oshirib yuborardi. Bu yil paxtadan daromadimiz 2 milliard so'mdan ortgan bo'lsa, xo'jaligimizning jami daromadi 3 milliard so'm bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganim xo'jaligimiz a'zolari mehnatlarining yuksak e'tirofi deb qabul qildik.



Azimxon RIZONOV,
Kattaqo'rg'on tumanidagi "Azimxon Rizonov" ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi boshlig'i, "Shuhrat" medali sohibi.

Mas'uliyat



Bolaligim Qo'shrabot tumanida o'tgan. Yoshligimdan chorva, xususan, otga mehrim bo'lakcha edi. Otlarni ko'paytirish, naslini yaxshilashga qiziqishim kuchli bo'lgan. Shu bois, 1964-1973-yillarda Samarqand qishloq xo'jalik institutida o'qib, zootexnolog mutaxassisligiga erishdim. O'qishni bitirgach, bir necha yil tumanlardagi "sovxoz"larda zootexnik bo'lib ishladim. 1977-yilda institutga qaytib, ilmiy ish bilan shug'ullandim. Chunki kishi biror sohaning yetuk bilimdoni bo'lib, ilmini boshqalarga o'rgatmasa, uning bilimidan nima naf bor.

Yilqichilikni

rivojlantirish asosiy

MAQSADIM

Sohadagi 62 yillik, xususan, oliy ta'lim dargohidagi 50 yillik faoliyatim davomida O'zbekistonda yilqichilik, qorabayir otning yangi zotlarini yaratish va shu zot naslini yaxshilash, ko'paytirish va oziqlantirishni to'g'ri tashkil etishda ko'pgina xo'jaliklar va naslchilik zavodlariga amaliy yordam ko'rsatayapman. O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'izistonda yilqichilik bo'yicha birinchi fan doktori va professori, yangi tashkil etilgan yilqichilik va ot sporti federatsiyasi raisining yilqichilik masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'ldim. Hozir ham talabalarga yilqichilik, tuyachilik, chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi va standartlash, hovuz baliqchiligi, baliqchilik asoslari fanlaridan dars beryapman. 300 ga yaqin ilmiy maqola, darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy ishlar yozdim. Shundan yilqichilik, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi va baliqchilik fanlari bo'yicha 3 ta darslik, 4 ta o'quv qo'llanma, 2 ta yo'riqnoma, 20 ga yaqin tavsiyanomam halqaro va respublikamizning nufuzli jurnallarida chop etildi. Maqolalarim xorijiy yuqori impakt faktor va skopus bazalarida indeksatsiyalanadigan ilmiy jurnallar, xalqaro to'plamlarga kiritildi. Shuningdek, 4 ta amaliy loyihaga rahbar, bir nechta loyihalarga maslahatchi sifatida ishladim.

Shu mehnatlarim e'tiborga olinib qishloq xo'jalik xodimlari kuni munosabati bilan "Mehnat shuhrati" ordeniga sazovor bo'ldim. Bu mukofot menga yanada katta ishonch, mas'uliyat va kuch berdi.

Do'stmuhammad XOLMIRZAYEV,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi.



Prezident farmoniga ko'ra



Konstitutsiyaviy

odil sudlov

samaradorligini oshirish – davr talabi

Konstitutsiyaviy odil sudlov demokratik huquqiy davlatning muhim instituti bo'lib, Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash hamda mamlakatimizda qonuniylik muhitini, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yaratishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda fuqaro va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda odil sudlovni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari takomillashtirilib, fuqarolarga Konstitutsiyaviy sudga bevosita murojaat qilish imkoniyati yaratildi.

2025-yil 18-dekabrda Prezidentimiz tomonidan imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmo yurtimizda Konstitutsiyaviy nazoratning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqdi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatini bosqichma-bosqich qammashtirish, odil sudlovga erishish kafolatlarini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlashdagi rolini yanada oshirdi. Farmonga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etadi.

Mazkur axborotda ko'rsatilgan konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish davlat organlari uchun tavsiyaviy xarakterga ega. Ammo axborotdagi taklif va tavsiyalar ijrosini ta'minlash tartibli belgilanmaganligi oqibatida ularning ijrosini to'laqonli ta'minlash imkoni mavjud emas.

Hujjat bilan Konstitutsiyaviy sudning har yili axborotida davlat organlari faoliyatiga oid tavsiyalarning ular tomonidan ko'rib chiqilishi majburiy etib belgilandi hamda parlament nazoratini o'rnatish, davlat organlarining mas'uliyatini oshirish, shuningdek, belgilangan chora-tadbirlar ijrosini to'liq ta'minlashga erishiladigan bo'ldi.

Konstitutsiyaning 133-moddasiga muvofiq, fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudda ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqli.

Tahlillarga ko'ra, aksariyat hollarda Konstitutsiyaviy sudga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish huquqi subyekti bo'lmagan fuqaro va yuridik shaxs tomonidan sudga taalluqli masala yuzasidan murojaat qilishmoqda.

Farmon bilan Konstitutsiyaviy sudga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish huquqi subyekti bo'lmagan fuqaro yoki yuridik shaxs tomonidan yo'llangan murojaatni bunday huquqqa ega bo'lgan subyektinga yuborish, shuningdek, subyekti tomonidan fuqaro yoki yuridik shaxsning murojaatidagi masala Konstitutsiyaviy sudga kiritilmagan holatlarda muallifga uning murojaatidagi masalani sudga kiritishga asos mavjud emasligini tushuntirgan holda xabar berish, axborot taqdim etish amaliyotini joriy etish belgilandi.

Yuqoridagi normalarning amaliyotga tatbiq etilishi Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan subyekti tomonidan fuqaro yoki yuridik shaxs manfaatida Konstitutsiyaviy sudga masala kiritilishini ta'minlaydi.

O'z navbatida, fuqaro va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, konstitutsiyaviy normalarni mustahkamlashga hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Shohrux MAJIDOV,
O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi katta eksperti.

Zebo Saidova:

"Maqsad – qaytarish emas, sharoitini o'rganish"

Xabaringiz bor, davlatimiz rahbari 25-noyabr kuni Samarqandga tashrfi chog'ida viloyatda xotin-qizlar bandligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va tashqi migratsiyadan qaytgan ayollarga ko'mak berish bo'yicha mas'ullarga topshiriq bergan edi.

Xususan, xorijda bo'lib turgan 89 ming nafar samarqandlik xotin-qizlar bilan suhbat o'tkazib, ular uchun munosib ish o'rinlari yaratish bo'yicha aniq vazifalar yuklatilgandi.

Ayni kunlarda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi vakillari hamda viloyatdagi tegishli boshqarma va tashkilot rahbarlaridan iborat ishchi guruh tomonidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Viloyatdagi barcha shahar va tumanlarda xatlov jarayoni davom etmoqda. Migratsiyada bo'lgan xotin-qizlar bor xonadonlar o'rganilib, anketa savollari to'ldirilmoqda. Anketa savollarida o'sha oiladagi ahvol, migratsiyadagi ayol yashayotgan sharoit, qaysi davlatga, qanday yo'l bilan ketgani, u yerdagi faoliyati qonuniymi, muam-molari yo'qmi kabi masalalar qamrab olingan. Yigirmadan ortiq masala qayd etilgan savol-noma to'ldirilib, jamlangach, tahlil etiladi.



Migratsiyadagi xotin-qizlar ish sharoiti yaxshi bo'lmasa, ular o'sha davlatning qonunlari talabiga javob bermagan holda faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, ularga tegishli yordam ko'rsatilishi belgilangan. Qolaversa, qiynalgan muhojir xotin-qizlar O'zbekistonga qaytganda, ularga mavjud ish o'rinlari taqdim etilishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun zarur yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan.

Yangi yilda ham rejalar bisyor

Mana, saylovdan keyin bir yildan ortiq vaqt o'tdi. O'tgan vaqt ichida O'zXDP viloyat va uning tuman (shahar) kengashlari hamda mahalliy kengash deputatlarimiz tomonidan hududimizdagi muammolarni o'rganish, ularga yechim topishga harakat qildik. Davlat dasturlari berilgan takliflar asosida hududlarni rivojlantirish bo'yicha aholini o'ylantirib kelayotgan bir qator masalalar hal etilishiga erishildi.

Yil davomida partiyaning saylovoldi dasturida ilgari surilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan "Quvonch va mehr ulashaylik", "Imkoniyati cheksiz ayollar", "Orzular dunyosi", "Siyosatdagi yoshlar", "Salomatlik aksiyasi", "Ijtimoiy tashabbuslar", "Imkon", "Uzoq umr kaliti", "Bir-birimizni qo'llab – quvvatlaylik" kabi loyiha va aksiyalar o'tkazildi.

Partiyaning dasturiy maqsad va vazifalarining mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish va tushuntirish, partiyaning jamiyatdagi ijobiy imijini yaratish maqsadida 15 mingga yaqin targ'ibot, tashviqot tadbirlari tashkil etildi. "Xalq bilan muloqot – muammolarni samarali, tezkor hal qilish omili", "Bandlik: ijtimoiy himoyaning muhim kafolati", "Deputat va yoshlar" mavzularida ochiq muloqotlar uyushtirildi.

Saylovchilarning partiya-ga nisbatan

xayrixohligi va ishonchini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar natijasida 140 ming nafar fuqaro partiya a'zoliciga qabul qilindi.

Ma'lumki, har qanday siyosiy partiya o'z dasturiy maqsadlarini davlat hokimiyati vakillik organlariga saylangan deputatlari orqali amalga oshiradi.

Bugun mahalliy kengashlarda 95 nafar partiyamiz guruhlar a'zolari bo'lib, barchasining xalq orasida ham, deputatlar orasida ham obro'si, hurmati yaxshi.

Partiya guruhlari tomonidan yil davomida 50 ga yaqin masala doimiy komissiya yig'ilishlarida muhokama qilindi, 36 tasi sessiyalar kun tartibiga kiritilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashidagi partiya deputatlik guruhi partiyaning elektorati manfaatlarini ifoda etish maqsadida bevosita partiyamiz

viloyat kengashi hamda hududiy kengashlari bilan uzviy aloqada ish olib bormoqda.

Partiya viloyat kengashining yangi yilda ham rejalarini bisyor. Xususan, davlat dasturlari, partiyaning ustavi, saylovoldi dasturi, 2026-yilga mo'ljallangan ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor beramiz. Partiya safiga yangi a'zolari qabul qilish, ular bilan ishlash hamda hisobini yuritish faoliyatini tubdan takomillashtirish, partiya safini yangi a'zolar bilan to'ldirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilab oldik.

Partiyamizning 2024-2029-yillarga mo'ljallangan amaliy harakat dasturi ijrosini ta'minlashni izchil davom ettiramiz.

Badriddin NASRIYEV,
O'zXDP viloyat kengashi raisi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.



Sarhisob



SALOMATLIK marafoni yakunlandi

sog'lom turmush targ'iboti
tadbirlari davom etadi



Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, kasalliklarni erta aniqlash va tibbiy profilaktika maqsadida shu yilning 17-noyabridan 17-dekabrga qadar Samarqand shahrida "Salomatlik marafoni" o'tkazildi.

Dastlab oktabr oyida Nukus shahrida bo'lib o'tgan va ijobiy samara bergan marafonning uzviy davomi sifatida bu gal ko'hna kentda tashkil etilgan mazkur ommaviy tadbir ikki bosqichda – shahardagi 20 ta oilaviy poliklinika va 3 ta maxsus poliklinikada hamda respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filialida bo'lib o'tdi.

Poliklinikalarda 18 turdagi laborator hamda 29 turdagi instrumental tekshiruvlar o'tkazish uchun tibbiy asbob-uskunalar ajratildi. Jumladan, 2 ta mobil mammograf va 2 ta mobil angiograf olib kelindi. Respublika ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining 18 yo'nalishdagi yetakchi mutaxassislari ishtirokida aholi chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.



– Marafondan ko'zlangan maqsad aholini skrining dasturlari bilan qamrab olish, maqsadli tibbiy ko'riklarni tashkil etish va ushbu ko'riklar davomida aniqlangan kasalliklarni davolash, xalqimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzi, sog'lom ovqatlanish madaniyatini targ'ib qilish edi, – deydi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining tibbiy yordamni tashkil etish bo'yicha birinchi o'rinbosari Jamshid Jiyanov. – Bir oy davomida viloyatimiz hamda respublika ixtisoslashtirilgan markazlarining malakali mutaxassislari jalb qilingan holda Samarqand shahrida bu vazifalarni amalga oshirishga erishdik. O'tgan vaqt mobaynida 175 mingdan ziyod aholi skrining dasturlari bilan qamrab olindi, 40 mingga yaqini maqsadli tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Bu tadbirlar natijasida 200 dan ziyod fuqaroni operativ yo'l bilan davolashga erishildi. 56 nafar bemorda yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari o'tkazildi. Bu bemorlarning aksariyatini kam ta'minlangan oilalar vakillari, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar tashkil etdi. Shahardagi 2, 6 va 9-poliklinikalarda tor soha mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan ko'riklarda 1210 nafar aholi angiografiya tekshiruvidan o'tkazildi va natijada 221 kishida stentlashga, 128 kishida aorta koronar shuntlashga ko'rsatma aniqlandi. 6000 nafardan ortiq ayollar ko'krak bezi saratoni va bachadon bo'yni saratonini erta aniqlash uchun ultratovush tekshiruv va mammografiya ko'rigiga jalb qilindi. 111 nafar ayol xavfli o'sma kasalligiga gumon qilinib, ularning 8 nafarida bachadon bo'yni va 9 nafarida ko'krak bezi saratoni tashxisi tasdiqlandi. Ularni davolash choralari

ko'rilmogda.

Marafon davomida shahardagi aholi ko'p to'planadigan joylarda salomatlik nuqtalari tashkil etildi. Ushbu maskanlarda aholi instrumental tekshiruvlardan o'tkazildi, ya'ni vazni, bo'yi, semizlik darajasi aniqlandi va tibbiyot xodimlari tomonidan zarur tavsiyalar berildi, sog'lom turmush tarzi targ'ibotiga oid ko'rgazmali vositalar tarqatildi. Bu tadbirlar orqali ma'lum darajada Samarqand shahar aholisining tibbiy xizmatdan roziligiga erishildi. Tarmoq reja bo'yicha viloyat miqosidagi shunday salomatlik marafonlarini Kattaqo'rg'on shahar va Urgut tumanida o'tkazish ko'zda tutilgan. Umuman, 2026-yil davomida viloyatning barcha tuman va shaharlarida bu kabi tadbirlar o'tkazish rejalashtirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, salomatlik marafoni davomida Samarqand shahridagi oilaviy poliklinikalarga 175 mingga yaqin aholi murojaat qilib, 263 mingga qabul amalga oshirildi. Ushbu qabul natijasi asosida ko'p tarmoqli poliklinikaga yo'naltirilgan 38 mingdan ortiq aholi respublika va viloyat tibbiy muassasalarining malakali mutaxassislari tomonidan tekshiruvdan o'tkazilib, 1400 nafariga statsionar, 22 ming nafariga ambulator muolajalar tavsiya etildi. Oilaviy poliklinikalarga murojaat qilgan aholi 7 turdagi skrining tekshiruvlaridan o'tkazildi. Tekshiruvlar yakunlari DMED yagona elektron axborot tizimiga kiritildi va bu fuqarolar salomatligini doimiy monitoring qilish, kasalliklarni erta aniqlash, ularning oldini olish va davolash samaradorligini oshirishga katta turtki beradi.

– Respublikamizda birinchi "Salomatlik marafoni" Nukus shahrida o'tkazilib, tibbiy xizmatga ehtiyoji yuqori keng aholi qatlami qamrab olingan edi, – deydi Samarqand shahar sog'liqni saqlash bo'limi boshlig'i Ahmadjon Bobojonov. – Undan keyin Samarqand shahrida tashkil etilgan marafon ko'lami ham yanada kengayib, nafaqat shahar tibbiy muassasalari xodimlari, balki viloyat, respublikadan malakali mutaxassislari qatnashdi. Ular yordamida eng chekka mahallalardagi tibbiy yordamga muhtoj, salomatligida muammosi bo'lgan aholigacha borilib, hatto uyda yotgan bemorlar ham malakali vrachlar tomonidan ko'rikdan o'tkazilib, tavsiyalar berildi. Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlari rahbarlarigacha shahrimizga kelib, maqsadli tibbiy ko'riklarni tashkil etish va o'tkazishga yaqindan yordam berishdi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 19-mayda qabul qilingan "Respublikada sog'liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, bu yil mamlakatimizdagi 15 ta tuman va shahar qatorida Samarqand shahrida tajriba-sinov tariqasida sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli joriy qilindi. Sog'liqni saqlash tizimini eng ilg'or xorijiy tajriba asosida isloh qilish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish, yangicha boshqaruv tamoyillarini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan yangi model asosida shahar sog'liqni saqlash tizimi faoliyati raqamlashtirildi, DMED tizimi, elektron poliklinika, elektron retsept joriy etildi.

– O'ttiz yillik tajribaga ega tibbiyot xodimi sifatida aytishim mumkin, biz yilning ikkinchi yarmidan boshlab, yangi tizimda ishlab, uning avvalo, aholi, qolaversa, tibbiyot xodimlari uchun ham juda qulayligini o'z faoliyatimizda ko'ryapmiz, – deya so'zida davom etadi A.Bobojonov. – O'tiqcha qozog'bozliklar kamaydi, barcha ma'lumotlar elektron ko'rinishga keldi. Poliklinikalardagi aholining tibbiy daftarchalari ham elektron shaklga keltirilib, tizimga kiritildi. Hozir bir shaharning har mahallasida aholining salomatlik ko'rsatkichlari, xavf guruhidagilar va dispanser ro'yxatida turganlar haqida aniq ma'lumotlarga egamiz. Aholi qaysi tibbiy



muassasaga borib, ko'rikdan o'tadigan yoki davolanadigan bo'lsa, DMED tizimi orqali uning tibbiy kartasidagi ma'lumotlar bilan tanishib, shunga qarab, tashxis qo'yish yoki muolaja tayinlash mumkin. Bu tizim marafonda ham juda qo'l keldi. Biz birinchi navbatda kimlarni mutaxassis ko'rigidan o'tkazish zarurligini aniqlab oldik va shu asosida viloyat, poytaxtdagi tibbiy markazlardan mutaxassislarni taklif etib, maqsadli ko'riklarni tashkil etdik. Bemorlar, kambag'al oilalar va kasallik kelib chiqishi ehtimoli yuqori bo'lgan xavf guruhlari bilan manzilli ish olib borildi. Eng ko'p uchraydigan kasalliklar yuzasidan bemorlar marshrutlari ishlab chiqildi va shifokor taktikasi bo'yicha qisqa muddatli o'quvlar – "workshop"lar o'tkazildi. Birinchi bosqichda respublika mutaxassislari tomonidan shahrimizdagi 20 ta oilaviy poliklinikaning 75 nafar tibbiyot xodimi – oilaviy shifokor, amaliyotchi hamshira va oila hamshiralari o'qitilib, mahalliy trenerlar tayyorlandi. Keyingi bosqichda mahalliy trenerlar tomonidan 168 ta tibbiyot brigadalari 679 nafar xodimning kasbiy malakasini oshirildi. Qandli diabet, yurak qon-tomir kasalliklari, ayollarda xavfli o'sma kasalliklari, reproduktiv salomatlik va bolalar parvarishi, DMED-savodxonlik bo'yicha "workshop"lar tashkil etildi. Bu ishlar natijasida bugun poliklinikalarimizdagi shifokor va patronaj hamshiralari qaysi oilada qanday tibbiy xizmatga ehtiyoji borligi, bemorlar to'g'risida aniq ma'lumotga va ularga qanday yordam ko'rsatish bo'yicha ko'nikmaga ega. Eng muhimi, "Salomatlik marafoni" bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish imkoniyatini berdi.

Marafon davomida texnologiyalar agentligi va davomli yoshlar ishlari vazirligi bilan hamkorlikda Samarqand shahridagi 92 ta o'rta ta'lim maktabida faoliyat olib boruvchi 84 nafar maktab hamshiralarga reproduktiv salomatlik asoslari, zararli odatlardan voz kechish, sog'lom turmush tarzi asoslari, aholining tibbiy savodxonligini oshirish bo'yicha "Oila salomatligi maktabi" mashg'ulotlari o'tkazildi. Maktab hamshiralarning lavozim yo'riqnomalari yangidan ishlab chiqildi. Bunda, hamshiralarning shifokorgacha birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish, DMED dasturi orqali bolalar vaktsinasiyasini monitoring qilish, sanitar-gigiyenik holatlar nazorati, o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzi bo'yicha targ'ibot tadbirlarini o'tkazish va o'quvchilarning ruhiy holatini monitoring qilishi nazarda tutilgan.

G'olib HASANOV,
Alisher ISROILOV (surat).

Bayramdan keyingi muammolardan qanday qutulish mumkin?



Yangi yil bayramida dasturxonni noz-ne'matlar bilan to'ldirishga harakat qilamiz. Har yili bayramda taomlarni aralashtirib iste'mol qilish ortidan bolalar va kattalarda turli muammolar paydo bo'ladi. Xo'sh, bayramdan keyingi ko'ngilsiz holatlarning qanday oldini olsak bo'ladi?

ICHAK KOLIKALARIDA

Bolalarda uchraydigan ichak kolikalarida qorinda og'riq, Qorin g'uldirashi va qorin damlashi kuzatiladi. Ichak kolikalariga ko'pincha no-to'g'ri ovqatlanish, ya'ni mevalar, gazlangan ichimliklar va uglevodlarga boy mahsulotlarni aralash iste'mol qilish sabab bo'ladi. Meteorizmning yana bir sababi stresslardir. Asabiy zo'riqlashlar ichaklarning ma'lum bir qismining spazmiga olib keladi. Natijada ichaklarning harakati buziladi va ortiqcha gaz to'planadi.

Bunda parhez tutish va ovqatlanish ratsionini to'g'rilash lozim. So'ngra bolani bezovta qilayotgan gazlarni haydab chiqarish uchun ferment dorilar beriladi. Qorinni massaj qilish ham yaxshi yordam beradi. Buning uchun bolaning qorini soat strelkasi bo'yicha vazelin bilan massaj qilish kerak. Agar yuqoridagi usullar yordam bermasa, ichaklardagi gazni haydab chiqarish uchun mo'ljallangan bolalar siropini qo'llash lozim.

ICH KETGANDA

Bayram dasturxonidan so'ng ko'pchilik bolalarning ichi o'tib qolishi mumkin. Ularni nafaqat ich ketishi, balki qusish ham bezovta qiladi. Bolalar qorindagi og'riq, ko'ngil aynishiga oid shikoyatlar qiladi. Ayrim hollarda isitmasi ko'tariladi. Xo'sh, nima qilish lozim?

Avvalo, meva va shirinliklarni yeyishni to'xtatish, so'ngra ovqat hazmini yaxshilovchi dori vositalari berish kerak. Uyda hech qanday dori bo'lmasa, unda kasallik boshlangandan so'ng bir soat ichida tozalovchi huqna va oshqozonni yuvish tavsiya etiladi. Buning uchun kattaroq yoshdagi bolalarga majburlab suv ichiriladi va qusishga majbur qilinadi.

Bolalarni bezovta qiladigan asosiy muammolarga to'xtalidik. Xo'sh, bayramdan keyingi kunlarda kattalarni qanday muammolar qiynaydi?

QON BOSIMI OSHGANDA

Bayram kunlari kuchli bosh og'riq bezovta qilsa, ya'ni qon bosimi ko'tarilgan bo'lsa, darhol arterial qon bosimini o'lchash kerak. Agar qon bosimi biroz ko'tarilgan bo'lsa, achchiq damlangan ko'k choy yordam berishi mumkin. Arslonquyruq damlamasi hayajonlanganda, stresslarda, arterial qon bosimi ko'tarilganda yaxshi yordam beradi. Bosh miyadagi qon tomirlarda qon aylanishini yaxshilab, bosh og'riqlarni ham bartaraf etadi.

BOSH OG'RIGANDA

Bayramdan keyingi kunlarda yoshi katta insonlarda ko'pincha bosh og'riq kuzatiladi. Chunki 2-3 kun uzluksiz bayram ko'rsatuvlarini tomosha qilish, mehmon kutish, dasturxon tayyorlash, oshxonadagi kuydi-pishdilar kishini charchatadi.

Bunda yalpizli choy yordam beradi. Yalpizning bir qator shifobaxsh xislatlari mavjud. Bu shifobaxsh g'iyoh tinchlantiruvchi, tomlarni kengaytiruvchi, og'riq qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Ayniqsa, bosh og'riqlarda, migrenda yaxshi yordam beradi. Asab tizimiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Bosh miyada qon aylanishini yaxshilaydi.

UYQUSIZLIKDA

Bayram kunlari bolalarda va kattalarda bir xil uyquning buzilishi kuzatiladi. Uyqusizlik, umuman, uyqu buzilishidan qanday voz kechish kerak? Melissa shifobaxsh g'iyohidan tayyorlangan damlama uyqusizlikda ajoyib vositadir. Ayniqsa, bu yoshli katta katta uchun eng yaxshi tinchlantiruvchi xususiyatga ega.

KO'NGIL AYNIGANDA

Och qoringa achchiq va sho'r salatlarini aralashtirib iste'mol qilish oqibatida ko'ngil aynishi, o'qchish kuzatiladi. Bunday holatda biroz muddat och qolish tavsiya etiladi. So'ngra ovqat hazmini yaxshilovchi fermentlar buyuriladi. Oshqozon og'rig'i bezovta qilsa, novokain eritmasi tavsiya etiladi. Uyda noshpa tabletkasi bo'lsa, undan ham yaxshi. Ovqat hazmini yaxshilash maqsadida limon sharbatini ham buyurish mumkin.

Darvoqe, dorixonalarda turli shifobaxsh g'iyohlardan tayyorlangan jamlanmalar mavjud. Siz har ehtimolga qarshi ularning bir nechta turidan xarid qilsangiz bo'ladi. Bayram kunlari va bayramdan keyingi kunlarda sizga asqotib qolishi mumkin.

Shahlo RUSTAMOVA,
SamDTU yuqumli kasalliklar kafedrası assistenti.
Hayotxon TOJIYEVA
pediatriya fakulteti talabasi.

Pilolliklarning bolalarga yangi yil sovg'asi

**Oqdaryo tumani
Pilol qishlog'idagi
7-umumta'lim
maktabi jamoasi
yangi yil arafasida
ajoyib sovg'a olishdi.**

"Tashabbusli budjet"ning 2025-yil birinchi mavsumida faol ishtirok etgan Oytamg'ali mahallasi ahli ushbu maktabga qo'shimcha bino qurilishi loyihasida g'olib bo'lgan edi. 7-umumta'lim maktabi hududida 180 o'rinli qo'shimcha binoning 8 ta o'quv xonasi

"Super MIX beton» MChJ quruvchilari tomonidan 1,5 milliard so'm mablag' evaziga bunyod etildi.

Hozirda mazkur ilm darohida 57 nafar o'qituvchi 560 nafar o'quvchiga bilim berib keladi.

Shu paytgacha sinxonalar yetishmasligi tufayli darslar ikki navbatda o'tilishi ham o'qituvchilarga, ham o'quvchilarga noqulaylik keltirardi. Endi esa bu muammoga barham berildi.

**Jamil MAJIDOV,
Oqdaryo tumani.**



Kitob javoningizga



Urushning ma'lum va noma'lum sahifalari

Millionlab kishilarning yostig'ini quritgan Ikkinchi jahon urushi barcha xalqlarning, xususan, o'zbek xalqining o'tmishida qonli bir xotira bo'lib qoldi.

Urush maydonlarida dushmanga qarshi mardonavor jang qilgan qahramonlarning nomlari avlodlar qalbida mangu yashaydi. Ammo ular orasida taqdiri noma'lum bo'lgan minglab qahramonlar ham bor.

Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi bir nechta tarixiy kitoblarni muallifi G'aybiddin Fazliyning "Urushning ma'lum va noma'lum sahifalari" asarining ikkinchi kitobi nashr etildi. Kitobdan urushda jasorat ko'rsatgan, ammo noma'lum sabablar bilan nomi qahramonlar qatorida tilga olinmagan yurtdoshlarimiz haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Tadqiqotchi bir necha yillar davomida sobiq SSSR Mudofaa vazirligining markaziy arxivida bo'lib, har bir ma'lumotni sinchkovlik bilan o'rgangan. Kitobda keltirilgan ma'lumotlarning aksariyatiga arxiv hujjatlari asos bo'lganligi uchun urush qahramonlarining ma'lum bir jasoratlari haqidagi voqealar batafsil va ishonchli ma'lumotlar asosida yoritilgan. Kitobning katta qismidan "Sharqlik o'n bir qahramon" tepaligi bahodirlariga bag'ishlangan maqola o'rin egallaydi.

1942-yilning sentabr oyida Kletskeya stansiyasida 115,2 belgili tepalik uchun ayovsiz janglar kechadi. Olti soatdan ortiq davom etgan shiddatli



jangdan keyin tepalikka vzvodning qirg'angchisidan faqat o'n ikki kishi yetib keladi. Ulardan biri ma'lumot yetkazish uchun shtabga jo'natiladi. O'n bir jangchi hali o'zini o'nglamasdan turib, dushmaning 300 nafar avtomatchi askar va ofitserlariga duch keladi va ularga qarshi shiddatli jangga kiradi...

Mana shu jangchilar sharafiga ushbu tepalik "Sharqlik o'n bir qahramon" nomini oladi. Ulardan sakkiz nafari o'zbekistonlik edi.


Ushbu asar shu kabi qimmatli ma'lumotlar asosida Ikkinchi jahon urushi haqidagi tasavvurimizni kengaytiradi, ajdodlarimizning qahramonliklarini ifodalaydi.

Tarix – insoniyatning buyuk xotirasi

Yurtimizda boy tarixi bilan mashhur manzillar ko'p. Nurobod tumani ham ana shunday qadimiy maskanlardan biri.

Xususan, Sazag'on, Tepaqul, Jom, Tim, Arg'on va Qo'rg'oncha qishloqlaridan topilgan arxeologik topilmalar – qadimiy qo'rg'on va qal'alar qoldiq izlari, tosh va temir qurollar, uy-ro'zg'or buyumlari, qadimiy tangalar, qoyatosh rasmlari bu hududda qadimiy yashash manzillarining o'rnini ko'rsatadi. Noyob arxitektura va madaniy meros namunalari – Tim qishlog'idagi Arabota maqbarasi, Oq masjid, Sahro qishlog'idagi Ostonabobo me'moriy yodgorliklar Buxorodagi XI asrga oid somoniylar maqbarasi bilan tarixiy bir davrni o'zida namoyon etadi.

Ushbu qimmatli ma'lumotlar "Nurobod – qadimiy maskan" nomli monografiya-to'plamda batafsil bayon qilingan. Tadqiqotchi Xolmurod Soriyev g'oyasi asosida nashr etilgan monografiyadan Samarqand arxeologiya instituti, Samarqand



davlat universiteti arxeologiya kafedrası, "Ipak yo'li" xalqaro tadqiqot instituti, Samarqand chet tillar instituti hamda Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Serjantlar tayyorlash oliy maktabi tadqiqotchilarining Nurobod tumani tarixiga oid ilmiy-tahliliy maqolalari o'rin olgan.

Sulaymon MARDIYEV.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida Kattaqo'rg'on shahrida 3763 ta oila "Kambag'allik reestri"ga kiritish uchun yagona so'rovnomadan o'tkazilib, 2917 ta oila (77 foiz) skoring va mahalla beshligi tomonidan reestrda kiritilgan edi edi.

Kambag'allikni qisqartirishning milliy modeli

Bu oilalarga 5 turdagi 17182 ta individual dastur doirasida hokim yordamchilari va ijtimoiy xodimlar tomonidan xizmatlar briktilirildi. Tuzilgan individual rejalarni amalga oshirish maqsadida "Inson" markazi tomonidan hamkor tashkilotlarga referal xatlar va bevosita ariza talab etilayotgan ijtimoiy xizmat ko'rsatildi. Mazkur xizmatlar natijasida 373 ta oila daromadi oshdi, 981 ta oila avtomatik skoring natijasida yuqori daromadlarga, 113 ta oila mahalla beshligi xulosalari hamda 312 oila daromadlari minimal iste'mol xarajatlari (MIX) dan yuqori bo'lganligi sababli kambag'allikdan chiqarildi. Qolgan 1126 ta oila daromadlari MIXdan past bo'lganligi sabab reestrda qoldi. Ushbu oilalarga ijtimoiy xizmatlar va daromadini oshirish yo'nalishida doimiy ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, kambag'allikni qisqartirishning uzoq muddatli barqaror mexanizmlari va innovatsion usullarini yaratish, bir vaqtning o'zida kambag'allarning

ehtiyojlarini qondirish va barqaror o'sish asosini shakllantirish uchun yurtimizda Xitoyning 14-besh yillik rivojlanish rejasini (2021-2025-yillar) boshlang'ich nuqta sifatida qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida inson kapitali darajasini oshirish, sifatli davlat xizmatlaridan foydalanish, oliy ta'lim qamrovini kengaytirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Chunki texnologik modernizatsiya ko'proq yuqori malakali ishchi kuchini talab qiladi. Aynan shu maqsadlarga erishish maqsadida O'zbekiston uzoq muddatli rejalashtirishga muhim ahamiyat berilmoqda. Xususan, mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasida 5 ta uzoq muddatli ustuvor yo'nalishni amalga oshirish, jumladan, har bir insonning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan.

**M. MUHAMMADIYEV,
Kattaqo'rg'on shahar
"Inson" ijtimoiy xizmatlar
markazi bosh mutaxassisi.**

Bayram tadbirlarida yangi iste'dod egalari kashf etiladi

ilgari surilmoqda. Unga ko'ra, katta sahnalarga ilk bor chiqayotgan yosh iste'dod egalari jalb etish rejalashtirilgan.

— Bu xayrli ishlarni Yangi yil bayrami tadbirlaridan boshlamoqchimiz, — deydi viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i Botir Tugalov. — Har qanday katta yoki kichik sahnaga chiqish yosh iste'dod sohibi uchun ulkan tajriba maktabidir. Bu uning hayajonini yengishga, sahna madaniyatini o'rganishga, muhimi, o'z kuchiga ishonch paydo qilishga xizmat qiladi. Biz asosan olis hududlarda "yashirinib" yotgan iste'dodlarni izlab topish, ularni kashf etish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratyapmiz. Bu borada quyi bo'g'indagi har bir rahbar o'z mas'uliyatini chuqur anglashi lozim.

Botir Tugalov bu yo'nalishda yosh va tashabbuskor kadrlarga tayanayotganini ham alohida ta'kidlaydi. Jumladan, yaqinda rahbarlikka tayinlangan Qo'shrabot tumani, madaniyat bo'limi mudiri Hasan Yavg'ashev hamda Kattaqo'rg'on tumanining chekka hududida joylashgan 30-bolalar musiqa va san'at maktabida bir necha yildan beri samarali faoliyat yuritib kelayotgan Shodiyor Amirov kabi rahbarlar bu borada ishonchni oqlamoqda.

— Maktabimiz Navoiy viloyatining Xatirchi tumaniga yaqin hududda joylashgan, — deydi Shodiyor Amirov. — Biz olis qishloqlarda yashovchi iste'dodli bolalarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlashga doimiy e'tibor qaratamiz. Maktabimiz o'quvchilari viloyat, respublika, hatto xalqaro tanlovlarda ham yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda. Keyingi uch yilda Samarqand telekanali ijodkorlari bilan hamkorlikda musiqa maktabimiz o'quvchilari ishtirokida yarim soatlik musiqiy-ko'ngilochar dastur tayyorlash an'anaga aylangan. "Navo" hamda "Madaniyat va ma'rif" telekanallarida ham iqtidorli o'quvchilarimiz chiqish qilib, o'z mahoratlarini namoyon etishdi.

To'liq SIDDIQOV.



Viloyat madaniyat boshqarmasi rahbari tashabbusi bilan bayram tadbirlaridagi katta sahnalarga yangi iste'dod egalari olib chiqish rejasini nafaqat yoshlarga, balki madaniy hayotimizga ham yangi ruh bag'ishlashi shubhasiz. Bayram tadbirlarida yosh iste'dod egalari yo'l ochilishi — bu nafaqat san'at sohasida kadrlar zaxirasini yaratish, balki qishloq va chekka hududlarda yashovchi yoshlarning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish demak. Katta sahnaga qadam tashlagan har bir yosh ijrochi ertaga yetuk san'atkor bo'lib yetishishi mumkin. Shu ma'noda, bunday tashabbuslar kelajakka qaratilgan eng to'g'ri va samarali qadamdir.

To'liq SIDDIQOV.



**O'ZBEKISTON KASABA
UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING
SAMARQAND VILOYATI KENGASHI**

jannatmakon yurtimiz farzandlari va barcha hamkasblarini

yangi yil

bilan tabriklaydi.
Tinch va osoyishta yurtimizga ko'z tegmasin!

O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARI KASABA UYUSHMASI SAMARQAND VILOYATI KENGASHI

*vatandoshlarimiz,
tibbiyot posbonlari va kasaba uyushma
faollarini kirib kelayotgan yangi*

2026-yil

bilan tabriklaydi!



Barchangizga mustahkam sog'lik, omad va shodlik tilaymiz!



**“URGUT SAVDO
KOMPLEKSI”**

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

yurtdoshlarimizni yangi

2026-yil

bilan samimiy qutlaydi.

*Xonadoningizdan
qut-baraka,
fayz arimasin!*





TURON BANK

ATB SAMARQAND BANK XIZMATLARI MARKAZI

*barcha vatandoshlarimizni
jumladan, kasbdoshlari
va mijozlarini*

yangi yil

bilan tabriklaydi.

*Qalbingizdan
quvonch, yuzingizdan
tabassum arimasin,
azizlar!*



Xotira



Sadoqatli do'st yodi

Yoshlik paytlarimizda ota-bobolarimiz davrasidagi suhbatlarda “Umr – oqar daryo”, degan so'zlarni ko'p eshitgan bo'lsak-da, uning ma'nosini tushunib yetmasdan kulib qo'ya qolardik. Maktabni tugatib, kimdir oliy ta'lim muassasasiga, yana kimdir texnikumlarda o'qib, oila qurib, mustaqil hayotga qadam tashlagandan keyingina dono xalqimizning ko'p o'g'itlari, nasihat va duolarining ma'nosiga tushuna boshladik.



tiqiy yondashuvi bilan nafaqat o'zi istiqomat qilgan mahallada, balki shahar aholisi o'rtasida obro'-e'tibor qozongandi.

Kursdoshlarning har yilgi diydorlashuv uchrashuvlari ham Tolibjonsiz o'tmasdi va u bunday tadbirlarni tashkil etishda har doim bosh-qosh bo'lardi. Tolibjon bilan o'qish davrida va undan keyingi hayotimizda ham ko'plab voqea-hodisalarga guvoh bo'ldik.

Birodarimiz ko'pchilik havas qiladigan namunali oila boshlig'i edi. Umr yo'ldoshi Mavludaxon Narziyeva bilan bir o'g'il va ikki qizni tarbiyalab voyaga yetkazishdi va ularning jamiyatda munosib o'rin topishida katta xizmat qilishdi.

Haqiqiy do'stlar o'lmaydi, unutilmaydi, ularning xotirasi qalblarda abadiy qoladi. Tolibjon bugun oramizda bo'lmasa-da, undan ezgu va ibratli amallar qoldi.

Mo'min QODIROV.

Mustaqil hayotga qadam qo'ygan dastlabki yillarda yaxshi ish topish, uy qurish, to'y qilish, mashina olish kabi orzu-niyatlarni amalga oshirish uchun mehnat qilishimiz tayyil yaqin qarindoshlar, yoru do'stlar bilan ham ko'risha olmasdik. Keksayganda esa hayotning mazmuni boylik orttirish, amal pillapoyalardan yuqorilash yoki hashamatli to'ylar qilish emasligini, do'stlaring, yaqinlarning bilan hamsuhbat bo'lish, zarur paytda yonida turish, mehr-oqibatli bo'lish ekanligini tushunib yetdik.

Inson eng yaqin, qadrdon kishilarini yo'qotganidan keyingina hayotning qadriga yetar ekan. Ota-onani, yaqin qarindoshlarni yo'qotish, birga o'qigan sirdosh sinfdosh, maslakdosh do'stlardan ajralish ham juda og'ir kechar ekan.

O'tgan yillar davomida Samarqand davlat universitetining fizika fakultetini 1977-yilda bitirgan kursdoshlarimizning ko'pchiligi bu foni dunyoni tark etdi. Ana shunday qadrdon kursdosh do'stlarimizdan biri Tolibjon Ashurov hayot bo'lganida 71 yoshini nishonlagan

bo'lardi. Afsuski, mash'um o'lim do'stimizni oramizdan olib ketdi. Yaqin do'stning o'limi har qanday inson hayotidagi eng qiyin va og'riqli sinovlardan biri bo'larkan.

Do'stimiz T.Ashurov 1955-yil 6-yanvarda Samarqand shahrida tavallud topgan edi. SamDuning fizika fakultetida tahsil olib, mehnat faoliyatini Samarqand shahridagi 53-umumta'lim maktabida fizika fani o'qituvchiligidan boshladi. Keyinchalik shahar yoshlar tashkiloti kotibi, “Krasniy dvigatel” zavodi muhandisi, zavod partiya qo'mitasi kotibi, zavod ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i, zavod bosh direktori, Bog'ishamol tumani yul-ekspluatatsiya boshqarmasi boshlig'i, Samarqand shahar hokimligi kommunal bo'limi bosh mutaxassisi, “Sino” aksiyadorlik jamiyati boshlig'i, bosh texnolog kabi mas'uliyatli lavozimlarda fidoyilik bilan ishladi. 2015-yil pensiyaga chiqqanidan keyin shahar hokimligining Samarqand shahar Xo'jasoat mahalla fuqarolar yig'ini raisi lavozimida faoliyat yuritdi.

T.Ashurov insonparvarligi, halol mehnati va har bir masalaga man-

YANVAR OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

1-YANVAR

Abdurahim MUXTOROV – (1931-2000) Samarqand tumanida tug'ilgan. Kulol. O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi.

O'tkir UZOQOV – (1930-1996) O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi. Biolog olim.

Ibodulla MIRZAYEV – 1946-yilda Surxondaryo viloyatida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.

Yaxshinor ALLAYOROV – (1946-2025) Paxtachi tumanida tug'ilgan. “El-yurt hurmati” ordeni sohibi.

Nasrulla SOHIBNAZAROV – 1944-yilda Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi. Yog'och o'ymakor usta.

3-YANVAR

O'ktam ORIPOV – (1927-2001) Jizzax viloyatida tug'ilgan. Tibbiyot fanlari doktori, O'zbekistonda

xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi.

Muhiddin PO'LATOV – 1978-yilda Ishtixon tumani tug'ilgan. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

5-YANVAR

Rahmatjon LATIPOV – 1941-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq artisti.

6-YANVAR

Po'latjon NOSIROV (1948-1999) Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Qishloq xo'jaligi fanlar akademiyasi akademigi.

Rahim HAYITOV – (1944-2022) Samarqand shahrida tug'ilgan. Tibbiyot fanlari doktori, akademik.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR

TANLOVDA QATNASHING!

SamDTU davolash ishi fakulteti pediatriya kafedrasiga assistent lavozimiga - 1 o'rin tanlov e'lon qilinadi.

Talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

1. Rektor nomiga ariza.

2. Xodimlarni hisobga olish bo'yicha so'rovnoma.

3. Oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlari, ilmiy unvoni haqidagi attestat nusxalari.

4. Tasdiqlangan ilmiy ishlari ro'yxati.

5. Malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikat.

Murojaat uchun manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

YIG'ILISHDA QATNASHING!

Payariq tumanidagi “Chelak dehqon bozori” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2026-yil 9-yanvar kuni soat 10:00 da o'tkaziladi.

Kun tartibida har xil masalalar ko'riladi.

Manzil: Payariq tumani Chelak shahri. JAMIYAT MA'MURIYATI.

Payariq tumanidagi “Suzangaron savdo kompleksi” mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2026-yil 9-yanvar kuni soat 11:00 da o'tkaziladi.

Kun tartibida har xil masalalar ko'riladi.

Manzil: Payariq tumani Chelak shahri. JAMIYAT MA'MURIYATI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Husainov Rustamga (2017-yil 11-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Mazurekova Natalya Yurevnaga (2025-yil 4-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Zayniyev Xiroddin Srojevichga (2021-yil 16-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Bakiyev Djalolga (2020-yil 11-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros

ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Mahmudova Muhiba Djumayevnaga (2024-yil 2-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Nurov Bozorboy Rasulovichga (2019-yil 26-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Xolboyev Baxridin Jabbarovichga (2024-yil 22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

O'ZBEKISTON DAVLAT MUASSASALARI VA JAMOAT XIZMATI XODIMLARI KASABA UYUSHMASI SAMARQAND VILOYATI KENGASHI

bunyodkor xalqimizni yangi

2026-yil

bilan qutlaydi.

Barchangizga sihat-salomatlik,

xotirjamlik tilaymiz. Yurtimizga ko'z tegmasin!



ATIB

“IPAK YO'LI BANKI”

SAMARQAND FILIALI

barcha hamkasblari va mijozlarini

Yangi yil

bilan tabriklaydi.

Tinch va
osoyishta
yurtimizga ko'z
tegmasin!

Xizmatlar litsenziyalangan.



YO'LIMDA UCHRADING OHU MISOLI...

Yo'limda uchrading ohu misoli,
Quvib yetolmadim shamol bo'lsam ham.
Jayron, nega olib qochding ko'zingni,
Unutmasam kerak endi o'lsam ham.

Umidu hadikla boqding-u bir bor,
Sehrli olamga yetaklab ketding.
O'zing-ku g'oyibga singding ehtimol,
Menimni tuzoqqa tashlading, ketding.

Ba'zan :“oh,u” deyman siymongni ko'rib,
Xayolda tegramda yurgan bo'lasan.
Majnunday bejoman, behush tikilsam,
Tumanlar bag'ridan boqib turasan.

Na bir imo qoldi, na bir sas qoldi,
Na tog'dan, na toshdan topdim izingni.
Javdiragan nigoh asiri bo'ldim,
Jayron, sevib qoldim suzik ko'zingni...

SHAYDOLIK

Samo oynasidan mo'ralaydi oy,
Yulduzlar darchasi bir-bir ochilar.
Ona qishloq uzra latif bir chiroy,
Latif bir skunat unsiz sochilar.

Mening xayolimda dilbarning yodi,
Qog'oz parchasiday yuragim g'ijim.
Iltifot qilmaydi umrim sayyodi.
Va yigit jonimga aylamas rahm.

Ana, derazadan to'kilib yog'du,
Tashna qarog'imga singadi ular.
Chinni piyolada may tutur oh, u,
Ichaman, qog'ozga chak,chak to'kilar.

QO'SHIQLARIM

Hey, qalbimning suyukli, jon qo'shiqlari,
O'ksimangiz, gar quyoshga taqdim etsam.
O'ksimangiz, dilginamning gul ishqlari,
Qo'shig'imga qo'shib, boqiy taqdir etsam.

Ўктам Мирзаёр асли нарпайлик, Ислом Шоир Назар ўғли, Пўлкан шоир дostonлари руҳи билан вояга етган. Устози, таниқли шоир Отаёр Наҳановнинг этагини ушлаб, катта адабиётга кириб келган. У камтарлиги, меҳрибонлиги, муҳими, касбига бўлган садоқати туфайли ҳам бугун мамлакат ижодий муҳитида ўз ўрнига эга бўлди. «Огоҳ кўнгил», «Яхши кунлар қувончи», «Соғинч дафтари» каби ўнлаб шеърӣ ва публицистик китоблар муаллифи. «Республика», «Хуррият» газеталарида бош муҳаррир бўлиб ишлади. Айни пайтда «Гулистон» журналида фаолият кўрсатмоқда.

Ўктам Мирзаёровни 70 ёши билан табриклаймиз!

Siz ketarsiz singib quyosh nurlariga,
Va bahorning ming ohangli yomg'iriga.
Ketarsizlar singib shudring durlariga,
Ham samoning, ham zaminning keng bag'riga.

Ketarsizlar, yo'limiz ham bo'lar yiroq,
Lek o'ksimang, qo'shiqlarim to'li-to'lib.
Ketsangiz-da borliq uzra singib, biroq,
Yana qalbga qaytasizlar qo'shiq bo'lib.

YIGIRMA YOSH ERTAKLARI

Yigirma yosh, bobolarim so'rog'iga,
Erkingni ol, deya berdi yalov, qurol!
Bobolarim na'rasidan qalqdi zamin,
G'animlarning qadlarini etdilar dol.

Yigirma yosh bilagimga quvvat berdi,
Vatan sha'ni sha'nim dedim, bukulmadim.
Quyosh kabi istiqlolga chiqdim mag'rur,
O'zbekiston bo'ldim, jangda yengilmadim.

JILG'ANING ORZUSI

Mildir-mildir chashma edim,
Jilg'alarga aylandim.
Tashnalarga tashna edim,
Qondirmoqqa shaylandim.
Quchog'ingga ola qolgin,
Ola qolgin daryojon!

El bo'larman, asov daryo,
Qo'shiq kuylab oqarman.
Qirg'og'ingga dunyo-dunyo,
Yalpiz, rayhon taqarman.

Olislarga olib ketsin,
To'liqlining mayliga.
Rayhonlarim bo'yi tutsin,
Olam chiqsin sayliga.
Quchog'ingga ola qolgin,
Ola qolgin, daryojon!

Mayli, menga makon bo'lsin,
Qaqragan cho'l siynasi.
Giyohlarga bitayin jon,
Tosh bo'lsa-da, diydasi.
Quchog'ingga ola qolgin,
Ola qolgin daryojon!

Mildir-mildir chashma edim,
Jilg'alarga aylandim.
Tashnalarga tashna edim,
Qondirmoqqa shaylandim.

KO'NGIL

Qish.
Borliq marvaridday jim-jim tovlanar,
Lolalar sayrini istaydi ko'ngil.
Zamin itoatkor, unsiz aylanar.
Bahor.
Tabiat kelinday nozli shaylanar,
Ko'ngil "Qorbo'ronni" istab qoladi.
Zamin itoatkor unsiz aylanar.
Umr chavandozday ot qo'yib borar.

MENING QO'SHIG'IM

Tong chog'i borliqqa taralgan nurlar,
Maysa dudog'ida chaqnagan durlar–
Mening qo'shig'im.
Bahorning ming ohangli yomg'irlari ham,
Dehqonning qoraygan yag'rinlari ham,
Mehtiribon onamning bag'rlari ham –
Mening qo'shig'im.
Mening qo'shiqlarim kamalak rangda.
Shunday tegramda...

VISOL

Bog'da bulbul nola chekib sayraydi.
Bog'bon qizi boqqa chiqib keladi.
Buta, gullar orasidan pildirab,
"Tutqin" bulbul huzuriga yeladi.

Qaydan chiqdi bechoraning ovozi,
Bog'bon qizi hayajonda anglamas,
Atrofiga nigoh tashlar... qorong'u,
Gul butoqlar orasidan kelar sas:
– Men bundaman, hoy,
Bodomgul, o'ng yoqda.

– Voy, ishingiz qursin, sizni berahm.
Jichcha qoldi yorilishga yuragim...
Yulduzlar-la achomlashib to'lin oy.
Samo uzra yelkan kabi yelmoqda.
Bog'da bulbul shodon-shodon sayraydi.
Bog'bon qizi bog'dan chiqib kelmoqda.

SO'G'INCH

Kuyimga kuy qo'shar qizcham qiyqirib,
Tinglagil, kuyimning yo'qdir munglisi.
Tinglagil, kuylagim keldi hayqirib,
Orzumand ko'nglimning munis singlisi.

Iztirob qiynaydi arg'uvonlarning,
Qo'yoshning taftida yayrashin ko'rib.
Yayrasang ne bo'lg'ay, shu armonlarni,
Tilkalab qarshimda mardona turib.

Ko'zimga sig'maydi lojuvard osmon,
Sig'maydi ufqqa chalishgan kenglik,
Bag'rida yastangan paxtazor, xirmon,
Hammasi qalbimda istaydi tenglik.

Ko'kdagi charag'on oftob bir qo'shiq,
Umrinning boricha kuylayman uni.
Zamin abadgacha kuylanajak ishq,
Shular-ku hayotning asl mazmuni.

Aytmishlar: kelganlar, kellarlar, ketar,
Tanib-tanimasdan o'zin, erkini.
Kelganim oliy baxt, ketishga yetar,
Nigohimga bosdim yurtim ko'rkini.


QO'MSASH

Tonggi sabolardan so'roqlab seni
Narpay bo'ylarida kezdin parishon.
Maysalar siypalab o'pgan izingni,
Qo'msadin o'rtanib, topmadim nishon.

Nechun ayri tushdi yo'llar besabab,
Qaydasan, qaydasan, qaylarda qolding?
O, mening shiddatkor sho'x bolaligim,
Nechun sarobdayin zumda yo'qolding?

Maysa dudog'ida chaqnagan zumrad,
Shudringlar bag'riga singidingmi yo?
Yo o'sha yechilmas sirli jumboqlar–
Koinot komiga yo bo'ldingmi jo?

Dil-dildan o'rtanib, qo'msayman seni,
Yigitlik yoshimning qaynoqligida.
Ne ajab, bu kunni qo'msasam yonib,
Tim qora sochimning oppoqligida.



BOLALADI BIR KUN OLAPAR

Bolaladi bir kun olapar,
Yetti o'g'lon, yettita puchuq.
Nurga to'ldi shu kuni ombor,
Shu kechasi tinmadi kuchuk.

Yalab-yulqab jujuqlarini,
Atrofida yurdi parvona.
Tutib yelin, jujuqlarini,
Parvaladi mushtipar ona.

Katta hovli, yugurgilaydi,
Bir –birini quvib yettovlon.
Tili, dumi bilan silaydi,
Sho'rlik ona xursandu mavlon.

Bir kun qo'shni qishloqdan kelib,
It ko'zini qilib shamg'alat.
Bir kuchugin ketdilar olib,
Sodir bo'ldi ajab bu holat:

Nolon-nolon uvlab olapar,
To'rt tarafga chopdi jonsarak.
Topolmasdan g'ingshib har safar,
Yerni timar, yo'q biror darak...

Oh, o'sha tun tunamadi u,
Uvilladi oylarga boqib,
Ko'zlarimga inmadi uyqu,
Nolalari qalbimni yoqib.

Nahot ketmas esidan chiqib,
Nahot qo'ymas, bir zum nolishni.
Tinglab yotdim, bo'zladim, quchib,
Jiqqa ho'lga botgan bolishni.

Mehribonlik uyiga boqing:
Qancha bola, biron "g'ing" demas.
Tashlab ketgan zurriyodini
Ba'zilar bor, bir itcha emas...



Viloyat teatrlariga 350 mingdan ziyod tomoshabin keldi

Bugungi kunda viloyatdagi to'rtta – musiqali drama teatri, rus drama teatri, qo'g'irchoq teatri hamda Kattaqo'rg'on shahar drama teatri ijodiy jamoalari aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy muhitni yuksaltirish, teatr san'atini ommalashtirish va milliy madaniyatni targ'ib etishda muhim o'rin tutmoqda.

Viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Botir Shaymatovning ma'lum qilishicha, joriy yilning o'tgan davrida viloyat teatrlariga 350 ming nafardan ortiq tomoshabin tashrif buyurgan bo'lib, ijodiy jamoalar tomonidan zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi, jahon adabiyoti namunalari hamda yoshlar va bolalar uchun mo'ljallangan 900 ga yaqin spektakl namoyish qilingan. Shu bilan birga, ijodiy faoliyat natijasida hamda turli hamkorlik loyihalari orqali 2 milliard so'mdan ziyod mablag' ishlab topilib, ushbu mablag'lar teatrlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sahna bezaklarini yangilash va ijodiy xodimlarning malakasini oshirishga yo'naltirilmoqda.

– Teatr san'atining eng sara milliy va klassik asarlarini ommaga yetkazish, ayniqsa, olis hududlardagi aholi madaniy hordiq chiqarishi maqsadida hududlarda 350 dan ortiq gastrol safarlar va ko'chma spektakllar tashkil etildi, – deydi B.Shaymatov. – Jumladan, "Bahodir Yalangto'sh", "Mahmudxo'ja Behbudiy", "Buyuk Turon", "Millat fidoyisi", "Pora", "Yumuq ko'zlar", "Ali Qushchi" kabi 14 ta yangi spektakl sahnalashtirildi. Xususan, viloyat musiqali drama teatri ijodiy jamoasi Turkiya Respublikasining Anqara shahrida rejissyor F.Boynazarov



tomonidan sahnalashtirilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" spektaklini namoyish etdi. Shuningdek, Indoneziyaning Jakarta shahrida Kattaqo'rg'on shahar drama teatri hamda ushbu mamlakatning "Bumi Purnati" teatri hamkorligida sahnalashtirilgan "Imom Buxoriy va Sukarno" spektakli namoyish qilindi.

Viloyat qo'g'irchoq teatri ham respublika va xalqaro miqyosda yuqori natijalarga erishib, 41 ta davlat teatri orasida eng ko'p spektakl namoyish etayotgan jamoa sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur teatr to'qqiz mamlakatning 12 ta davlat teatri bilan hamkorlik memorandumlari imzolab, xorijiy gastrol safarlari va xalqaro festivallarda faol ishtirok etmoqda. Xususan, joriy yil Rossiya federatsiyasining Ryazan shahrida o'tkazilgan XX xalqaro qo'g'irchoq teatrlari festivalida buyuk alloma Ali Qushchi hayoti va ijodiga bag'ishlangan spektakl bilan ishtirok etib, "Eng yaxshi aktyorlik ishi" nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.


F.RO'ZIBOYEV.

Sharq taqvimiga ko'ra, 2026-yil qizil olovli ot yili ostida o'tadi. Ushbu ramz quvvat, harakat va yangilanish bilan bog'liq bo'lib, bunday uyg'unlik 60 yilda bir marta kuzatiladi. Ot - kuch va olijanoblik ramzi. U chidamlilik, tezlik, jasorat, sadoqat, sabr-toqat va erkinlikka intilish kabi fazilatlarini o'zida mujassam etadi.

Ot yili nimalarni va'da qiladi?

Astrologlarning ta'kidlashicha, 2026-yil nisbatan barqaror kechadi. O'zgarish, faollik va imkoniyatlar yili rejalashtirilgan loyihalarni amalga oshirish uchun qulay keladi. Biroq moddiy manfaat ustuvor yo'nalish bo'lmaydi, ma'naviy o'sish, insonlar bilan munosabat va o'z ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qat'iy qarorlar, kasbiy o'sish va shaxsiy rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bu yilda ortiqcha xarajat va mojarolardan tiyilgan ma'qul. O'tning quvvati to'g'ri yo'naltirilsa, u muvaffaqiyat manbaiga aylanadi.

Qizil olovli ot yili barcha burj vakillari uchun shaxsiy o'zgarish davri bo'ladi. Bu yil mustaqillik, o'zini namoyon etish, yangilikka ochiqlik va intilishni talab etadi. Faol, qat'iyatli va samimiy insonlar uchun ayniqsa, omadli bo'ladi. Ot, yo'lbars va maymun burjlari ostida tug'ilganlarga o'sish va yangi imkoniyatlar va'da qilinmoqda.



da. Boshlagan ishini oxirigacha yetkaza oladiganlar uchun ham yil muvaffaqiyat keltiradi. Umuman, 2026-yil o'zgarishlarga tayyor, intiluvchan va o'z ustida ishlaydiganlar uchun qulay bo'lib, yilning ikkinchi yarmida halollik va intizom sharti bilan karera va shaxsiy hayotda yutuqlarga boy keladi. Yangi yil - oilani bir joyga jamlaydigan, qalblarni yaqinlashtiradigan bayram.

Yil qanday kelishi esa avvalo, har kimning o'ziga bog'liq. Shunday ekan, samimiyat, haroratli so'z va chin dildan qilingan orzu-niyatlar albatta, o'z mevasini beradi.

Yaqinlaringizdan iliq so'zingizni ayamang, ularni qo'llab-quvvatlang, ishonch bildiring. Zero, shu kichik, ammo samimiy mehr belgilari birlashib, kelayotgan yilda mo'jizaga aylanishi shubhasiz.

Gulnora XOLDOROVA tayyorladi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 896 nusxada chop etildi. Buyurtma 608. Hajmi 4 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:


B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2026-yil 6-yanvar, chorshanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda